

O'ZBEK TILIDA SIFATDOSHLARNI QO'LLANILISHI.

Axmedova Muborak Raxmonovna

Navoiy viloyati Uchquduq tuman 20-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Sifatdosh - o'zbek tili morfologiyasi eng muhim tarkibiy qismlarlaridan biri bo'lib, nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Biror bir grammatik kategoriyanı so'z turkumi sifatida ajratish uchun uchta belgining bo'lishi shart: morfologik, leksik, sintaktik belgi. Sifatdosh va sifat shaxs va narsaning belgisini bildirishi bilan bir-biriga o'xshaydi. Sifat shaxs va narsaning turg'un, barqaror belgisini ifodalaydi. Ushbu maqolada o'zbek tilida sifatdoshlarni qo'llanilishi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Sifatdosh, fe'l, affiks, ot, o'tgan zamon, propozitsiya, predikatsiya, presuppozitsiya.

O'zbek tilida sifatdosh yuzasidan olib borilgan kuzatishlar bu belgilarning sifatdoshda mavjud ekanligini, shunga ko'ra, sifatdoshni alohida so'z turkumi sifatida ajratish mumkin va zarurligini ko'rsatdi. Masalaning mohiyatini to'g'ri payqab olish uchun, hozirgacha bo'lgan sxemadan bir qadar uzoqlashmog'imiz kerak. Maktab grammatika darsliklaridagi tasnifga ko'ra, sifatdosh fe'l sistemasiga kiritib qaraladi. Bu hol har ikki grammatik kategoriya ya'ni fe'l va sifatdosh haqida konkret tasavvur hosil qilishga imkon bermaydi. Natijada, har ikki grammatik kategoriyaning tub mohiyati, ulardan har birining o'ziga xos xususiyatlari ochilmay qoladi. Boshqacha aytganda, sifatdosh tushunchasi fe'l tushunchasi bilan birikib ketadi. Sifatdoshning zamoni bevosita nutq vaqtiga nisbatan emas, balki fe'lning aniqlik maylidagi shaxsson bilan tuslangan shakli bildirgan vaqtta, gapning kesimidan anglashilgan vaqtga yoki matndagi biror so'z bildirgan vaqtga nisbatan belgilanadi. Shu sababli Sifatdosh bildirgan zamон nisbiy zamон hisoblanadi. Ko'chada kelayotgan yigit atrofga bir qarab qo'ydi. Mening sizga aytadigan anchagina gaplarim bor. Bunday ko'rsatkichli Sifatdosh shakllari fe'lning o'tgan zamон shakllarini hosil qilishda ham qatnashadi: kelgan edi, ketayotgan edi kabi. Fe'lning sifatga xoslangan shakli sifatdosh deyiladi. Sifatdosh fe'l asosiga quyidagi qo'shimchalarni qo'shish bilan hosil bo'ladi: -gan, -kan, -qan— o'tgan zamон qo'shimchalari; -yotgan, -ayotgan— hozirgi zamон qo'shimchalari; -(a)r, -uvchi, -adigan, -yedigan— kelasi zamон qo'shimchalari. Masalan: o'qigan

bola, so‘zlayotgan odam, keluvchi mehmonlar. Ushbu qo‘sishimchalar bilan hosil qilingan sifatdoshlardan keyin ot kelishi shart. Agar ot kelmasdan vergul yoki nuqta ishlatsa, bu fe'l sifatdosh emas zamon shakliga ega sof fe'l hisoblanadi. Masalan: o‘qilgan she'r—sifatdosh, she'r o‘qilgan—sof fe'l. Sifatdosh hech qachon shaxs-son qo‘sishimchasini qabul qilmaydi. Shaxs-son qo‘sishimchasini olgan sifatdosh shaklidagi fe'l ham sof fe'l hisoblanadi.

O‘zbek tilshunoslaridan sifatdosh haqida dastlab mukammalroq to’xtagan tilshunos R.Jumaniyozovdir. R.Jumaniyozov M.Asqarova bilan hamkorlikda ravishdosh va sifatdoshga bag’ishlab e’lon qilgan risolasida sifatdoshni ancha chuqurroq tahlil etib bergan. Risolada asosan sifatdosh fe'lning xoslangan shakli sifatida tadqiq etiladi. Bunda u predmetning harakat belgisini sifatlovchi vazifasini bajaradi, shu xususiyatiga ko’ra sifatga yaqin turadi deb ko’rsatadi. R.Jumaniyozov sifatdoshni asosan morfologik kategoriya sifatida qaragan va talqin etgan. Sifatdoshlar shaxs va narsalarning belgisini bildirishi, gapda aniqlovchi bo’lib kelishi bilan sifatga o’xshaydi. Sifatlar shaxs va narsaning turg’un, barqaror belgisini ifodalasa, sifatdoshlar o’zgarish, harakat belgisini ifodelaydi. Fe'lning sifatga xoslangan shakli sifatdosh deyiladi. Sifatdoshlar fe'l asoslariga - gan (-kan, -qan), -ydigan(-adigan), -(a)yotgan, -(a)r qo‘sishimchalarini qo’shish yo’li bilan hosil bo’ladi. Sifatdoshlar fe'l shakli bo’lganligi uchun fe’lga xos bo’lgan zamon, bo’lishlibo’lishsizlik, nisbat ma’nolarini ifodelaydi: o’qigan- bo’lishli, o’tgan zamon, aniq nisbatda. Shuningdek, sifatdoshlar xuddi sifatga o’xshab otning belgisini bildiradi, qanday? qanaqa? so’roqlariga javob bo’ladi va gapda aniqlovchi va kesim vazifalarini bajaradi. Sifatdosh, asosan, quyidagi affikslar bilan yasaladi: 1.-gan (-kan, -qan). Bu qo‘sishimcha nutqda eng faol qo’llanadi. Sifatdoshning - gan (-kan, -qan) qo‘sishimchasi shaxs-narsalarning o’tgan zamonga xos harakat belgisini ifodelaydi. Bu qo‘sishimcha unli bilan tugagan fe'l asoslariga qo’shilib, -gan holida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo’shilib, -kan holida talaffuz qilinsa ham, -gan yoziladi. Masalan: ko’chgan, o’sgan kabi. Jarangsiz q undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo’shilganda -qan, k undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo’shilganda -kan holida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi (tiq-tiqqan, tik-tikkan). Jarangli g’ undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo’shilganda -qan holida talaffuz qilinsa ham -gan yoziladi (tug'-tug’gan). 2. -digan, -yotgan. Bu affikslar -gan affiksi bilan bo’glangan: keladigan, kelayotgan, o’qiydigan, o’qiyotgan, yoziladigan, yozayotgan kabi. 3. -(a)r. Sifatdoshning bo’lishsiz shakli fe’llardagi kabi -ma qo‘sishimchasi yordamida yasaladi. -(a)r qo‘sishimchasi bilan yasalgan sifatdoshlarga -ma qo‘sishimchasi qo’shilganda -r tovushi -

s ga aylanadi. Masalan, kelar-kelmas. 4. -ajak: borajak (yer), bo'lajak (hosil), kelajak (zamon), yozilajak (she'r). 5. -gusi, -g'usi; kelgusi (avlod), bolg'usi (ish) kabi. -(a)jak, -gusi, -g'usi bilan yasalgan sifatdoshlar hozirgi o'zbek tilida arxaik hisoblanadi. 6. -(u)vchi: keluvchi, kutuvchi, boshlovchi kabi. Bu sifatdosh narsaning doimiy harakat belgisini bildiradi. Masalan: Pishqiruvchi vahshiy daryoga ko'rsatilar tamom yangi yo'l. (H.Olimjon) Sifatdoshlar ot o'rnida qo'llanilib, ot vazifasini bajarishi mumkin, ya'ni otlashadi. Bunda ular ot kabi egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalarini oladi va gapda ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi va undalma vazifalarida keladi.

Xulosa o'mida shuni aytish mumkinki, sifatdosh o'ramli gaplarda mazmun murakkablashib, sodda gapda bir necha propozitsiya ifodalanishi mumkin. Gap tarkibida presuppozitsiyaga ishora qiluvchi birliklar ifodalanmasligi mumkin, ammo mantiqiy jihatdan uning murakkabligi til egalari tomonidan idrok qilinadi. Bu tilda tejamkorlik tamoyilining amal qilinishi natijasida yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.Rasulova "Ona tilidan ma'ruzalar", Toshkent, "Nurafshon ziyo yog'dusi", 2017
2. Нурмонов А. Кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси (-дан ташқари конструкцияси) // Танланган асарлар. З жилдлик. З-жилд. Тошкент, 2012. Академнашр.
3. Q.Sapayev "Hozirgi o'zbek tili" Toshkent, 2009
4. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.